

IMOM BUXORIYNING “AL JOME AS-SAHIH” ASARI TALQINI

Aliyeva Ro'zixon Abdusamadxon qizi

Farg'ona Davlat Universiteti, Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) yo'nalishi

1-bosqich 2- semestr 25. 107- guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20025499>

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi Imom Buxoriyning “Al jome as-Sahih” asari haqida ma'lumot beriladi va Asar talqin qilinadi. Undagi mazmun - mohiyat va g'oyalar tahlil qilinadi. Asar boblaridagi ba'zi mavzular haqida keltirilgan hadislarga sharh berilib, mazmuni tahlil qilinadi va misollar keltirilib, fikr bildiriladi.

Kalit so'zlar: hadis, muhaddis, roviy, Imom Buxoriy, “Al jome as-Sahih”, Shayxul-islom sahih, nosahih, sahobalar, tobeinlar, axloq, pand – nasihat.

Аннотация: В данном тезисе представлена информация о труде Имама аль-Бухари «Аль-Джами ас-Сахих» и даётся его интерпретация. Анализируются его суть, значение и основные идеи. Комментируются и анализируются хадисы, приведённые по некоторым темам в главах произведения, а также высказываются мнения с приведением конкретных примеров.

Ключевые слова: хадис, мухаддис, равий, Имам аль-Бухари, «Аль-Джами асСахих», Шейх уль-ислам, сахих, недостоверный, сподвижники, табиини, нравственность, назидание.

Annotation: This thesis provides information about Imam al-Bukhari's work “Al-Jami' as-Sahih” and offers its interpretation. It analyzes the essence, significance, and core ideas of the work. Furthermore, it comments on and analyzes the hadiths presented under certain topics within its chapters, providing examples and critical insights.

Keywords: hadith, muhaddith, narrator, Imam al-Bukhari, “Al-Jami' as-Sahih”, Shaykh al-Islam, authentic, inauthentic, companions, followers, morals, advice.

Hadis – arab tilidan olingan bo'lib, xabar, gap, yangilik — Muhammad payg'ambar (s.a.v.) aytgan gaplari, qilgan ishlari va iqrorlari to'g'risidagi rivoyat bo'lib, Islom dinida Qur'ondan keyingi 2-manba hisoblanadi. Hadislar insonlarni axloq, adolat va hamjihatlikka chorlaydi. Sahih (ishonchli), hasan (yaxshi) va zaif turlarga bo'linadi.

Asosiy to'plamlar: Sahihul Buxoriy, Riyozus solihiy.

Hadisning Asosiy Tushunchalari: Tarkibi: Hadis ikki qismdan iborat: matn (hadisning matni) va isnod (hadisni rivoyat qilganlar zanjiri). Hadis yig'uvchilar muhaddis, ularni og'izaki va yozma tarzda boshqalarga yetkazuvchilar esa roviy deb yuritiladi. Roviylar asosan payg'ambar Muhammad (s.a.v) davrida yashagan bo'lib, o'sha davrida yozib olganlar. Ular sahobalar ya'ni payg'ambar Muhammad (s.a.v) ni ko'rgan, suhbatlashgan va hadislarini Muhammad (s.a.v) ning o'zlaridan yozib olgan. Bazilar esa tobein ya'ni sahobalarni ko'rib, ular bilan suhbatlashgan va hadislarini ulardan yozib olganlardir. Shunga ko'ra hadislar 2 turli bo'ladi, sahih va nosahih. Sahih bu ishonchli hadislardir. Nosahihlari esa aytilishi yoki yozilishidan biror kamchiligi bor hadislar hisoblanadi. Imom Buxoriy shu 2 turli hadislar orasidan faqat sahih hadislarini ajratgan va ularni to'plab, kitob holiga keltirgan. Asar “Al-Jome as-Sahih” ya'ni “Ishonchli hadislar to'plami” deb nomlangan. Bu manba Islom dinida Qur'ondan keyingi eng ishonchli manba hisoblanadi. Unda takrorladi bilan jami 7275 ta sahih hadislar

jamlangan. Buxoriy 600 mingga yaqin hadisdan 7275 ta sahih ini ajratgan va asar ko'rinishida jamlagan.

Ibrohim ibn Ma'qaldan rivoyat qilinadi: “Imom Buxoriyni hadislarini to'plashga undagan narsa haqida o'zi: “Biz Is'hoq ibn Rohavayhni huzurida edik, Is'hoq ibn Rohavayh: “Bizga ba'zi do'stlarimiz: “Agar sizlar Rasululloh (sallallohu alayhi vasallam)ning sunnat hadislarini jamlaydigan muhtasar bir kitob yozsalarigiz”, deb aytdi”, dedi. Mana shu gap meni qalbinga o'rnashib qoldi va o'sha kitobni jamlashga kirishdim”, deydi.

Hofiz ibn Hajar Asqaloniy: “Imom Buxoriy ustozidan eshitgan bu gap sahih hadislarini jamlashga bo'lgan azmini quvvatladi”, deydi.

Ibn Hajar yana bir sabab aytadi: “Biz imom Buxoriydan sobit bo'lgan sanad bilan rivoyat qildik: “Imom Buxoriy aytadi: “Men Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam tushimda ko'rdim. Men u zotning oldilarida edim. Qo'limdagi yelpig'ich bilan u zotdan hasharotlarni haydab turardim. So'ngra bu tushini tush ta'birini biladigan kishilardan so'radim. Ular: “Sen Rasululloh sallallohu alayhi vasallamni u zotga nisbat berilayotgan yolg'onlardan himoya qilyapsan” – deb aytdilar. Ana o'sha tush meni “Al-Jome' as-Sahih” asarimni yozishga undadi”.

Shu tarzda asar yaratildi va butun Islom olamida shuhrat topib, bizgacha yetib keldi. Bu asarda juda ko'p masalarda hadislar berilgan. Unda odob – axloq, ota-ona va qarindoshlarga munosabat, ilm olmoq haqida, tabobat haqida, ibodat va din odobi va boshqa masalalarda pand nasihatlar berilgan. Bu hadislar insonni har tomonlama tarbiyalaydi va komillik sari yetaklaydi.

Bu fikrlarimizga misol tariqasida ba'zi hadislarini misol qilishimiz mumkin.

Rasululloh sallallohu alayhi va sallam aytganlar: “Kimda quidagi uch xislat bo'lsa, unga iymon huzur-halovat baxsh etgaydir:

- Olloh va Rasulini hammadan ko'ra yaxshi ko'rmoq;
- Yaxshi ko'rgan kishisini faqat Ollohni deb (Olloh yaxshi ko'rgani uchun) yaxshi ko'rmoq;
- Yomon ko'rgan kishisini faqat Ollohni deb (Olloh yomon ko'rgani uchun) yomon ko'rmoq”.

Ushbu hadisda yuqorida aytilganidek, iymon va Allohga yaqin banda bo'lish uchun kerakli hislatlar sanab o'tilgan. Birinchi Allohni va uning Rasululini sevmok, bu Qur'oni Karimda ham keltirilgan va iymonning ilk shartidir. Yaratganni va uning payg'ambarini sevmagan kishi iymonli hisoblanmaydi. Keyingi sharti do'st bilan Alloh uchun do'st bo'lish va suyuqli insonlarni Alloh sevgani uchun yaxshi ko'rmoqdir. Allohning do'stini do'st deb, dushmanini dushman deb qabul qilish ham iymondandir. Bu asarning birinchi bobida keltirilgan bo'lib, bu bob iymon haqida hadislariga bag'ishlangan. Bu bobda iymonning shartlari, iymonli bo'lish, iymonning kuchaytirish, Allohni sevish va Unga ibodat qilish haqida gap boradi. Qolaversa, bu bobda iymonli insonlarga oxiratda va'da qilingan ne'matlar ham tilga olinadi. Yuqoridagi hadisda keltirilgan huzur – halovatga erishish haqidagi gap ham aynan shu haqidadir. Ya'ni iymonli va Allohning do'stlariga bu dunyo va oxiratdagi huzurdir.

Ilmu hikmatni orzu qilmoq

Hazrat Umar raziyallohu anhu bunday deganlar: «Boshliq bo'lmasingizdan avval ilmni chuqur o'rganing! Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning sahobalari yoshlari ulg'ayganda ham ilm o'rganganlar».

Abdulloh ibn Mas'ud raziyallohu anhu rivoyat qiladi: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «Ikki narsadan o'zgasiga hasad qilmoq joiz emas, biri — kishiga Alloh taolo halol mol-

dunyo bersa-yu, uni Haq yo'lida sarflayotgan bo'lsa, ikkinchisi :— kishiga Alloh taolo Ilmu - hikmat ato etsa-yu, u shu tufayli oliy maqomga erishib, odamlarga bilganini o'rgatayotgan bo'lsa»,— deganlar.

Bu hadisda esa ilm o'rganmoq va o'rgatmoqning hislatlar haqida so'z boradi. Ilm erta yoki kechroq o'rganiladigan narsa emas. Bejizga “Beshikdan to qabrgacha ilm izla” deb aytmagan dono xalqimiz. Yuqoridagi sahobalar haqidagi gap ham bejiz emas. Barchaning o'z xatosi bo'ladi va o'sha xatoni tuzatish uchun ham ilm o'rganiladi. Hoh yoshlik da bo'lsin, hoh keksalikda.

Bundan tashqari, asarda ota – ona, qarindoshlar va silai rahm haqida ham hadislar keltirilgan.

Bu haqida Imom al-Buxoriy Kulayb ibn Manfaadan ushbu hadisni rivoyat qilganlar:

Kulayb ibn Manfaa aytadilarki, «Mening bobom Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan so'ragan ekanlar, demak, Kulayb ibn Manfaaning bobosi sahoba bo'lgan. So'radilarki, «Kimga yaxshilik qilay, ey Rasululloh?» Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytdilar: «Avval onangga, so'ngra, otangga, keyin opa-singilga, aka-ukangga. Va undan so'ng qarindoshlaringga yaxshilik qilgin».

Ushbu hadisi sharifda avval ona, so'ng ota va keyin opa-singil va aka-ukalar zikr qilindi. Har birining o'z o'rni va fazli bor. Ona boshqa ba'zi ko'rsatmalarda 3 karra ziyoda ekani zikr qilingan. Onaning 3 marta ziyoda qilinganiga sabab nima?

Bu haqida Imom al-Buxoriy Kulayb ibn Manfaadan ushbu hadisni rivoyat qilganlar:

Kulayb ibn Manfaa aytadilarki, «Mening bobom Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan so'ragan ekanlar, demak, Kulayb ibn Manfaaning bobosi sahoba bo'lgan.

So'radilarki, «Kimga yaxshilik qilay, ey Rasululloh?» Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytdilar: «Avval onangga, so'ngra, otangga, keyin opa-singilga, aka-ukangga. Va undan so'ng qarindoshlaringga yaxshilik qilgin».

Hamasr ulamolarimizdan biri marhum doktor Mustafu Zuhayliy o'zining «Tafsiri Munir» degan tafsir kitobida yuqoridagi oyati karimaning tafsirini shunday keltiradi:

Ona otadan 3 karra ziyoda qilindi. Chunki 3ta ishda ona yolg'iz bo'lgan bo'ladi: homilani ko'tarish mashaqqatida, homilani dunyoga keltirish sinovida va tug'ilgan bolani 2 yilgacha uyqusini buzib emizish muddatida ona yolg'iz bo'ladi.

Ota qanchalik mehribon bo'lmasin, ayolining homiladorlikdagi azobini his qila olmaydi.

Qanchalik mehribon bo'lib ayoli yonida tursa-da, tug'ruq azobini his qila olmaydi. Kechalari uyg'onib bolasining beshigini tebratsa ham, u bu ishni ona kabi mehr bilan bajara olmaydi. Onaning shu 3ta ish orqali darajasi orttiriladi.

Silai rahmda ota-onaga yaxshilik qilishdan keyin birinchi o'rinda opa-singillar akaukalardan oldingi o'ringa qo'yildi. Chunki opa-singillar doim shafqatli va mehribon bo'lib kelgan. Buni tushungan faqihlarimiz bir masala aytadilar:

Singil ziyoratiga ketayotgan aka katta bug'doyzor maydonning orqasida singlisi yashasa, bug'doyzorni aylanib borguncha vaqt ketishi sababidan o'sha bug'doyzorni bosib o'tib, payhon qilib bo'lsa-da, singilni borib ko'rishiga shariatimiz ruxsat bergan. Boshqa holatda hosilni payhon qilishga ruxsat yo'q.

Asarning ushbu bobi inson uchun yaqinlari qanchalik muhim ekanini anglatadi, silai rahmni uzadiganlarni qoralaydi. Oilaviy yaqinlikka va aloqalarni mustahkamlashga chorlaydi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Imom Buxoriyning “Al-Jome' as-Sahih” asari shunchaki hadislar to'plami emas, balki islom olamida Qur'oni karimdan keyingi eng mo'tabar manba,

huquqiy, axloqiy va ijtimoiy hayotning mukammal dasturidir. Imom Buxoriy merosini va “Al-Jome’ as-Sahih” asarini bugungi kun nuqtai nazaridan qayta talqin qilish, uning asl mohiyatini xalqimizga va yosh avlodga yetkazish — jamiyatda sog‘lom diniy va ma’rifiy muhitni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu asar insoniyatni doimo ezgulikka, ilm-ma’rifatga va yuksak axloqqa chorlovchi o‘lmas xazinadir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Imom Buxoriy. “Al-Jome as Sahih “, Zokirjon Ismoil tarjimai – Toshkent 1991. Qomuslar Bosh tahririyati.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Mustalahul hadis”. Sharq nashriyoti 2011.
3. Shayx Muhammad Avvoma .Faqih imomlar ixtilofida hadisi sharifning o‘rni.”HILOL-NASHR”nashriyoti 2018
4. Doktor Taqiyuddin an-Nadviy Muzohiriy. “Al-Imam al-Buxoriy imamul huffazi val muhaddisin” dorul qalam. Damashq.
5. Abu Iso at-Termiziy. Sunani Termiziy sharhi. 1-j. Toshkent “Irfonnashr” 2021